

AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDA AGROTURIZM IMKONIYATLARI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI TALABASI

Abdumurodov Abdulaziz

abdumurodovabdulaziz2007@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Jumayev Jasur

Jasurjumayev03032007@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada agroturizmning aholi bandligini oshirishdagi o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Unda agroturizm tushunchasi, uning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari, shuningdek, qishloq joylarda yangi ish o'rinlari yaratishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Muallif O'zbekiston Respublikasida agroturizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati va amaliy tajribalarini tahlil qilgan holda, sohaning istiqbollari hamda takomillashtirish yo'llarini ko'rsatib o'tgan. Maqola yakunida agroturizmni rivojlantirish orqali qishloq joylarda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan*

Kalit so'zlar: *agroturizm, bandlik, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy rivojlanish, turizm infratuzilmasi, ekologik barqarorlik, mahalliy aholi, daromad manbai, innovatsion iqtisodiyot, qishloq turizmi.*

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, aholining farovon hayot kechirishini ta'minlovchi omillardan biri — bu bandlik masalasidir. Mamlakat iqtisodiy tizimida aholi bandligini ta'minlash, ayniqsa, qishloq joylarda mehnat resurslaridan samarali foydalanish muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, qishloq xo'jaligi va turizmni birlashtiruvchi yangi yo'nalish — agroturizm iqtisodiy o'sishni ta'minlashning innovatsion mexanizmlaridan biri sifatida e'tiborga loyiqdir.

Agroturizm so'nggi yillarda ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham, qishloq joylarda yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy aholini daromad manbaiga ega qilish hamda ekologik turizmni rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu maqolada agroturizmning aholi bandligini oshirishdagi o'рни, imkoniyatlari va istiqbollari tahlil qilinadi.

1. Agroturizm tushunchasi va mohiyati



Agroturizm — bu qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullaniladigan hududlarda tashkil etiladigan turizm turi bo‘lib, sayyohlarga qishloq hayoti, dehqonchilik, chorvachilik, milliy taomlar va urf-odatlar bilan tanishish imkonini beradi. Bu turizm turi nafaqat dam olishni, balki madaniy-ma’naviy qadriyatlarni o‘rganishni ham o‘z ichiga oladi.

Agroturizmning asosiy xususiyati shundaki, u tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va qishloq aholisi uchun qo‘shimcha daromad manbai yaratishga xizmat qiladi. Bunda qishloq aholisi mehmonlarga xizmat ko‘rsatish orqali o‘z faoliyatini diversifikatsiya qiladi, ya’ni faqat dehqonchilik bilan cheklanmay, turizm orqali iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytiradi.

2. Agroturizmning iqtisodiy ahamiyati

Agroturizm iqtisodiy tizimda ko‘p yo‘nalishli samara beradi:

Ish o‘rinlarini yaratadi: yangi turistik xizmatlar (mehmon uylari, yo‘lko‘rsatkichlar, hunarmandchilik mahsulotlari, milliy taomlar) orqali aholi bandligi oshadi.

Mahalliy ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi: turizm talabini qondirish uchun oziq-ovqat, hunarmandchilik va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari rivojlanadi.

Daromadlar oqimini oshiradi: qishloq joylarda ishlab topilgan mablag‘ ichki iqtisodiy aylanmaga kiradi va aholi farovonligi ortadi.

Infratuzilma rivojlanadi: yo‘llar, aloqa tarmoqlari, transport va xizmat ko‘rsatish tizimlarining yaxshilanishi yangi investitsiyalar uchun zamin yaratadi.

Shu bilan birga, agroturizm ekologik barqarorlikni ta’minlab, tabiiy resurslardan samarali foydalanish madaniyatini rivojlantiradi.

3. Agroturizmning aholi bandligiga ta’siri

O‘zbekistonda qishloq joylarda ishsizlik darajasi nisbatan yuqori bo‘lgani sababli, agroturizm bu muammoni hal etishda samarali vosita bo‘la oladi. Agroturistik faoliyatga jalb etilgan aholining bir qismi dehqonchilik bilan birga, sayyohlarga xizmat ko‘rsatish (mehmonxona, ovqatlanish, gidlik, transport xizmati, qo‘l mehnati buyumlari savdosi) orqali qo‘shimcha daromad oladi.

Aholi, ayniqsa yoshlar va ayollar, agroturizm orqali yangi kasblarni o‘zlashtiradi: masalan, til o‘rganish, marketing, servis, qo‘llanmalar tayyorlash kabi ko‘nikmalar. Bu esa inson kapitalining rivojlanishiga olib keladi. Shu tariqa agroturizm iqtisodiy o‘sinh bilan bir qatorda ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlaydi.

4. O‘zbekiston tajribasi va xorijiy misollar



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi “Qishloq joylarda turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4422-son qaroriga binoan, agroturizmni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Buning natijasida Samarqand, Buxoro, Farg‘ona, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida ko‘plab agroturistik klasterlar tashkil etildi.

Masalan, Samarqand viloyatining Urgut tumanida bog‘dorchilik va asalarichilik asosida tashkil etilgan “eco-farm” loyihalari nafaqat mahalliy aholini ish bilan ta‘minladi, balki xorijiy sayyohlarni jalb etishda ham muhim rol o‘ynadi.

Xorijiy tajriba nuqtai nazaridan, Italiya, Fransiya va Turkiya davlatlarida agroturizm qishloq joylarda barqaror bandlikni ta‘minlovchi asosiy tarmoqlardan biriga aylangan. Ayniqsa, Italiyada har yili 5 milliondan ortiq sayyoh agroturistik zonalarga tashrif buyuradi va bu mamlakat yalpi ichki mahsulotiga sezilarli hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston tabiati agroturizmni rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyat va salohiyatga ega. Yurtimiz aholisi azal-azaldan dehqonchilik hadisini olib, qishloq xo‘jaligida yuksak tajribani egallab kelishgan. Ming yillar davomida to‘plangan dehqonchilik tajribalarimiz asosida agroturizmni rivojlantirish mumkin. Bundan tashqari turli xil meva va sabzavotlarga boy mahsulotlarni yetishtirish uchun quyosh nuri va daryo suvlari serob hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda qishloq xo‘jaligida qo‘shimcha daromad manbaalarini ko‘paytirish uchun agroturizmni tashkil qilishga biosotsial potensial yetarli darajada tabiatimizda mavjud (1-jadvalda keltirilgan). 1-jadval

O‘zbekistonda agroturizm sohasining tahlili

Kuchli tomonlari	Kuchsiz (zaif) tomonlari
O‘zbekiston qishloq hududlarining yuqori turistik salohiyatga egaligi; Agroturizm imkoniyatlari uchun tabiiy va iqlimiy sharoitlarning mosligi; Davlat tomonidan turizm sohasiga strategik sektor sifatida e‘tibor qaratilishi; Hududiy diversifikatsiya imkoniyatlarining mavjudligi; Agroturizm xizmatlarini yil davomida ko‘rsatish imkoniyati; Ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortib borishi; Aholi bandligini oshirish va iqtisodiy diversifikatsiyani rag‘batlantirish imkoniyatlari.	Agroturizmga oid qonuniy asoslarning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi; Infratuzilmaning rivojlanmaganligi (yo‘llar, transport, mehmonxonalar va turistik xizmatlar yetishmovchiligi); Agroturizm bo‘yicha xizmat ko‘rsatish standartlarining yo‘qligi; Fermer xo‘jaliklari va qishloq aholisining agroturizm sohasidagi bilim va tajribalarining cheklanganligi; Investitsiyalarni jalb qilish



	bo'yicha mexanizmlarning yetarlicha samarali emasligi; Tashqi bozorlar bilan aloqalarning sustligi va xalqaro turistik platformalarda marketing strategiyasining yo'qligi.
Imkoniyatlar	Xavf-xatarlar
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan bog'liq agroturizm xizmatlarini taklif etish; Qishloqlarning madaniy, tarixiy va an'anaviy merosini saqlab qolish va rivojlantirish; Shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi iqtisodiy farqni qisqartirish va qishloq hududlarida bandlikni oshirish; Agroturizm obyektlarini xalqaro grant va investitsiyalar yordamida rivojlantirish; O'zbekistonning tabiiy va ekologik muhitidan foydalanib, xalqaro ekoturizm bozorida raqobatbardosh mahsulot yaratish; Mahalliy va xorijiy turistlar uchun maxsus agroturistik yo'nalishlarni ishlab chiqish.	Ekologik va tabiiy ofatlar, texnogen xavflarning mavjudligi; Agroturizm xizmatlariga xalqaro bozorda raqobatning kuchayishi; Iqlim o'zgarishlari va tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish oqibatida tuproq degradatsiyasi; Qishloq joylarida turizm xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha raqobatbardosh infratuzilmaning yetishmovchiligi; Sayyohlarning yangi turizm turlarini qabul qilishga tayyor emasligi va ma'lumot yetishmovchiligi; Ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik va global iqtisodiy o'zgarishlar.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, qishloq joylarda agroturizmni jadal rivojlantirish, turizm aylanmasiga fermer va dehqon xo'jaliklarini, qishloq joylardagi mahalliy aholini keng jalp qilish, hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida Vazirlar mahkamasi qarori⁷ chiqqan bo'lib, ushbu qarorda yurtimizda agroturizmni rivojlantirish yuzasidan bir qator vazifalar belgilab berilgan. Xususan: Agroturizmni tashkil qilish imkoniyatiga ega bo'lgan fermer va dehqon xo'jaliklari, tomorqa yer egalariga agroturizmni tashkil qilish uchun bir qator yengilliklar berish, ularga agroturizmni tashkil qilish bo'yicha amaliy yordam berish, hududning geografik, ekologik salohiyatidan kelib chiqib, agroturizm yo'nalishini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning tajribasini chuqur o'rganish va uni amalda joriy etish. Agroturizm obyektlarining to'liq geografik joylashuvi



to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni elektron xaritalarga (google maps ba boshqalar) joylashtirish, qishloq hududlarida agroturizm klasterlarini joriy qilish va bu orqali agroturistik mahsulotlarni yetishtirishdan boshlab, toki uni tayyor mahsulotga aylantirish va uni tatib ko'rishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladigan jarayonni tashkil qilish. Sayyohlarni qabul qilish istagida bo'lgan dehqon va fermerlar tomonidan “Turistik mahalla” tipidagi uy joylar komplekslari qurish kabi bir qator vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni tizimli ravishda amalga oshirish yurtimizda agroturizmni rivojlantirish, xalqaro va mahalliy turistlarni agroturizmga jalp qilishga katta hissa qo'shadi. Buning natijasida qishloq hududlarida yashovchi insonlarning daromadi oshib, ishsiz insonlarning ish bilan bandligi ta'minlanadi. Qishloq joylarida infratuzilma rivojlanadi, shahar va qishloqlar o'tasidagi disbalans yo'qoladi. Bundan tashqari qishloqlardan shaharga bo'lgan migratsiya kamayadi. Qisqa qilib aytganda qishloq hududlarida rivojlanish tezlashadi.

Mehnatda band aholining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi (2017-yil). Aholining munosib va rasmiy ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida “O'zbekiston Respublikasining 2021-2030 yillarda aholi bandligiga ko'maklashish strategiyasi” ishlab chiqildi. Ushbu strategiyani amalga oshirish natijasida erishiladigan maqsadli ko'rsatkich va indikatorlar 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar samarali va munosib ish bilan bandlikni oshirish asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub maqsadi – bu inson farovonligi, uning munosib turmush darajasini ta'minlash hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida davlat tomonidan aholining samarali ish bilan band bo'lishiga barcha shart-sharoitlarni yaratib berishi, shu jumladan, tadbirkorlar uchun qulay biznes yuritish muhiti, investitsiya, soliq siyosati, shaffoflik, sud-huquq tizimining adolatli bo'lishi kabi omillarga bog'liq. Chunki mamlakatimizda yaratilayotgan ish o'rinlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri keladi va aynan iqtisodiyotning taraqqiyoti kichik va o'rta biznesning rivojlanishi bilan bog'liq. O'zbekistonda 2021 yil 1 yanvar holatiga mehnat resurslari 19,1 mln. kishi, kishi, jami ish bilan bandlar 13,2 mln. kishi, shundan iqtisodiyotning rasmiy sektorida 5,7 mln. kishi (43,3%), iqtisodiyotning norasmiy sektorida 5,6 mln. kishi (42,8%), ishga joylashtirishga muhtoj shaxslar 1,6 mln. kishi (10,5%) va chet elda ishlash uchun ketganlar 1,8 mln. kishini tashkil qildi. Mehnat resurslari - mamlakat aholisining mehnatga layoqatli yoshdagi qismi, iqtisodiy resurslarning tarkibiy unsuri; 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar, 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar Mehnat resurslariga kiritiladi. Kishilar yoshining ulg'ayishiga qarab Mehnat resurslariga dastlab qo'shiladilar, so'ngra (yoshi



o‘tgach) undan chiqadilar. Ko‘pchilik mamlakatlarda, shu jumladan, O‘zbekistonda 16—59 yoshdagilar Mehnat resurslariga kiritiladi. Mehnat resurslari o‘ssishi aholining ko‘payishiga bog‘liq. Aholi tarkibida yoshlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, Mehnat resurslari shunchalik tez o‘sadi. 20-asr oxiri — 21- asr boshlarida O‘zbekistonda Mehnat resurslari har yili 320—350 ming kishi atrofida ko‘payib bordi. Ularning asosiy qismini mehnat yoshiga qadam qo‘yganlar tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agroturizm O‘zbekiston sharoitida aholi bandligini oshirish, iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytirish va qishloq joylarning ijtimoiy infratuzilmasini yaxshilashda katta imkoniyatlarga ega. Ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Agroturizm sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish
2. Qishloq joylarda turizm infratuzilmasini yaxshilash, transport va kommunikatsiya tizimini rivojlantirish.
3. Mahalliy aholining xizmat ko‘rsatish va marketing bo‘yicha bilimlarini oshirish uchun o‘quv dasturlarini yo‘lga qo‘yish.
4. Agroturistik mahsulotlarni xorijiy bozorga chiqarish uchun brending va raqamli marketing imkoniyatlarini kuchaytirish.
5. Ekoturizm, etnoturizm va agroturizmni birlashtiruvchi kompleks loyihalarni ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Lane, B. (2009). Rural tourism: An overview. In T. Jamal & M. Robinson (Eds.), *The SAGE Handbook of Tourism Studies*. London: SAGE Publications.
2. Phillip, S., Hunter, C., & Blackstock, K. (2010). A typology for defining agritourism. *Tourism Management*, 31(6), 754–758.
3. Sharpley, R., & Sharpley, J. (1997). *Rural tourism: An introduction*. London: International Thomson Business Press.
4. OECD (2018). *Tourism and the rural economy*. Paris: OECD Publishing.
5. UNWTO (2021). *Tourism and rural development: A policy perspective*. Madrid: World Tourism Organization.
6. Ziyodullaev, N., & Ziyodullaeva, M. (2023). FINANCIAL LITERACY, INTERRELATIONSHIP OF POPULATION INCOME AND EXPENDITURE. *Science and innovation*, 2(B12), 881-887.



7. Urazbekovna, T. K. (2024). ROLE OF PUBLIC POLICY IN CHANGES IN POPULATION INCOME. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(22), 316-321.

Xatamova D. M. O'RIK MAHSULOTLARINING FOYDALARI VA ISHLATILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 498-501.

Jamolov R. Q., Xatamova D. M., Xolmatova M. A. Asalning tasnifi va kimyoviy tarkibi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 1031-1036.

Jamolov, R. Q., D. M. Xatamova, and M. A. Xolmatova. "Asalning tasnifi va kimyoviy tarkibi." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.11 (2022): 1031-1036.

Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M., & Xolmatova, M. A. (2022). Asalning tasnifi va kimyoviy tarkibi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 1031-1036.

Xatamova D. M., Burxanova M. U., Muxtorova N. I. MENDELEYEV DAVRIY SISTEMASIDAGI YONAKI GURUH ELEMENTLARINI O 'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR. – 2025.

Xatamova, D. M., M. U. Burxanova, and N. I. Muxtorova. "MENDELEYEV DAVRIY SISTEMASIDAGI YONAKI GURUH ELEMENTLARINI O 'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR." (2025): 199-200.

Xatamova, D. M., Burxanova, M. U., & Muxtorova, N. I. (2025). MENDELEYEV DAVRIY SISTEMASIDAGI YONAKI GURUH ELEMENTLARINI O 'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR.

Xatamova D. M., Muxtorova N. I., Abduvoxidova N. A. SUBXONI VA SUPXONI O 'RIK NAVLARINI QIYOSLASH //IMRAS. – 2025. – Т. 8. – №. 6. – С. 268-273.

Xatamova, D. M., N. I. Muxtorova, and N. A. Abduvoxidova. "SUBXONI VA SUPXONI O 'RIK NAVLARINI QIYOSLASH." *IMRAS* 8.6 (2025): 268-273.

Xatamova, D. M., Muxtorova, N. I., & Abduvoxidova, N. A. (2025). SUBXONI VA SUPXONI O 'RIK NAVLARINI QIYOSLASH. *IMRAS*, 8(6), 268-273.

Xatamova D. M., Abdullayeva G. B., Zokirova M. M. O 'RTA MAKTAB KIMYO KURSIDA “OKSIDLAR” MAVZUSINI O 'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH //SCHOLAR. – 2025. – Т. 3. – №. 7. – С. 37-41.

Xatamova, D. M., G. B. Abdullayeva, and M. M. Zokirova. "O 'RTA MAKTAB KIMYO KURSIDA “OKSIDLAR” MAVZUSINI O 'QITISHDA



YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH." SCHOLAR
3.7 (2025): 37-41.

Xatamova, D. M., Abdullayeva, G. B., & Zokirova, M. M. (2025). O ‘RTA
MAKTAB KIMYO KURSIDA “OKSIDLAR” MAVZUSINI O ‘QITISHDA
YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. SCHOLAR,
3(7), 37-41.

